QO‘SHMA GAPLARDA ASIMMETRIK DUALIZMNING TEJASH TAMOYILI ORQALI ASOSLANISHI

AYTBAYEV DILSHODXUJA TEMIRBAYEVICH
Guliston davlat pedagogika institute O‘zbek tili va tillarni o‘qitish

kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada belgining shakliy va mazmuniy asoslari har doim ham bir-biriga mutanosib bo‘lavermasligi haqida xorijiy va o‘zbek tilshunoslarining fikrlari haqida fikr yiritiladi.

Kalt so‘zlar: omonimiya, sinonimiya, shakl va mazmun munosabati, nomutanosiblik, asimmetrik dualizm, tilning sath birliklari.

Asimmetrik dualizmning til sathlarida amal qilishini kuzatar ekanlar, tilning akustik-motor tomoni ham o‘zining sema-morfema sathida turuvchi birligiga egaligi va bunday birlik bo‘g‘in ekanligi aytiladi. Demak, dualizm universal hodisa sanalib, uni tilning barcha sathlarida kuzatish mumkin [1; 181].

Tilning barcha sath birliklarida dualizmning namoyon bo‘lishini tahlil qilar ekan, V.Skalichka jumla (высказывание) sathida asimmetrik dualizmning amal qilishi mumkin emasligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, gaplar birlashib, jumlalarni hosil qiladi. Jumla til tizimining yuqori sath birligi sanaladi. Ular o‘ziga yaqin quyi sath birliklari – gaplar singari klishe-gaplar orqali ifodalanadi. Shu sababli jumla alohida formal tavsifga muhtoj emas [5; 119–127].

Bizga ma’lumki, quyi sath birliklari yuqori sath birliklari uchun qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi. Ularning sintagmatik munosabatga kirishishi asosida yuqori sath birliklari hosil bo‘ladi. Bunga muvofiq, quyi sath birliklarining o‘zgarishi yuqori sath birliklarining ham o‘zgarishiga turtki bo‘ladi. Shu bois V.Skalichkaning yuqoridagi fikrlariga qo‘shilib bo‘lmaydi.

O‘zbek tilshunosligida ham lingvistik belgining shakl va mazmun munosaba-tini yoritib beruvchi bir qator tadqiqotlar mavjud. Xususan, prof. N.Mahmudov sodda gaplarda shakl va mazmun munosabatini tahlil qilar ekan, sodda gap doirasidagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik tildagi tejash tamoyilining amal qilishi sifatida namoyon bo‘lsa, qo‘shma gaplardagi bunday nomuvofiqlikning zamini tildagi ortiqchalilik tendensiyasiga borib taqalishini ta’kidlaydi [4; 148]. Uning fikricha, bir denotativ voqea ifodalangan ergash gapli qo‘shma gaplarda mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik har doim mavjud bo‘ladi va buning yuzaga kelishi tildagi ortiqchalilik tendensiyasiga borib taqaladi.

Shu o‘rinda bir mulohazali fikr tug‘iladi. Sodda gap doirasidagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlikning tildagi tejash tamoyili asosida yuzaga kelishini e’tirof etish mumkin. Lekin qo‘shma gap doirasidagi mazmuniy-sintaktik nomuvo-fiqlikning yuzaga kelishini faqat ortiqchalilik tendensiyasi bilan bog‘lash, bizningcha, to‘g‘ri emasdek ko‘rinadi. Chunki bir qarashda ortiqchadek tuyulgan bo‘lak – gap, masalan, *Bilamizki, reja bilan qilingan ish yaxshi natija beradi* gapidagi *bilamizki* qismi aslida qisqarishning eng oxirgi nuqtasiga uchrashi natijasida paydo bo‘lgan va qo‘shma gapning modusiga aylangan. (*Biz juda yaxshi bilamiz → biz yaxshi bilamiz → biz bilamiz → bilamiz*). Dastlab bu bo‘lak mustaqil gap sifatida borliqdagi biron-bir voqea-hodisa haqida ma’lumotga ega ekanlikni ifodalovchi propozitsiyaga ega bo‘lgan. Shuning uchun ergashgan qo‘shma gaplarning mazmuniy-sintaktik nomuvofiqligini faqat ortiqchalik bilan emas, tejash tamoyili bilan ham asoslash mumkin. Ya’ni ortiqchalilik tejash natijasida yuzaga keladi.

Til nutqda voqe bo‘ladi, xuddi shuningdek, til qonunlari ham nutqda reallashadi, til tejamkorligi ham bundan mustasno emas. Tildagi tejamkorlik deganda shunday jarayonlar nazarda tutiladiki, ular tufayli til murakkab fikrlarni soddaroq shaklda ifodalash uchun mukammalroq shakllar ishlab chiqaradi. Bunday shakllar alohida individlarning nutqiy faoliyatida yaratiladi va umuman til darajasidagi har bir tejamkorlik turi nutq darajasidagi

xuddi shunday holga mos keladi, chunki til darajasidagi har bir tejamkorlik turi nutq darajasidagi bosqichni bosib o`tish evaziga amalga oshadi [2; 58].

Tejamlilik tamoyilining sintaktik sathdagi ko‘rinishi ellipsis, ya’ni gap mazmuniga ta’sir etmasdan ba’zi so‘zlarning tushirilishi situatsiya, kontekst va ma’lum so‘zlar semantikasi bilan bog‘liq holda amal qiladi, bu kabi tushirilish ko‘pincha ma’no va effektni kuchaytiradi, shuning uchun notiqlik san’atida ritorik figura sifatida qo‘llanilgan [3; 72].

Ma’lumki, shakl va mazmun har bir ma’noli birlikda dialektik aloqada bo‘ladi. Ular o‘zaro zich bog‘liq bo‘lishiga qaramay, har qaysisi o‘ziga xos ichki tuzilishga ega. Shu bilan birga, bu ichki tuzilishni bir-biridan ajratib, alohida-alohida, bir-birisiz o‘rganish ham mumkin emas. Shuning uchun F. de Sossyur lingvistik belgining ifodalovchisi bilan ifodalanmishini daftar varag‘iga o‘xshatgani holda, ifodalanmish bilan ifodalovchini bir-biridan ajratish mumkin emasligini ta’kidlagan edi [6; 70].

Ko‘rinadiki, lingvistik birliklar mohiyatini aniqlashda uning ham shakliy, ham mazmuniy jihatlariga tayangan holda ish ko‘rish lozim. Sintaktik birliklarning mohiyatini aniqlashda ham uning bir tomoniga tayanish kutilgan natijani bermaydi. Turli propozitiv ma’noga ega bo‘lgan xilma-xil mazmuniy tuzilishdagi gaplar uchun mazmuniy umumiylik obyektiv borliqning muayyan bo‘lagini nomlashdan iboratdir. Obyektiv borliqning bu bo‘lagi, qismi inson ongida aks etadi va muayyan lingvistik vositalar yordamida ifodalanadi. Obyektiv borliq inson ongida qanday aks etishi va uning qanday vositalar yordamida ifodalanishiga ko‘ra ham shakl va mazmun munosabatlari o‘zgarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aytbayev D.T. O‘zbek tilida shakl va mazmun asimmetriyasi (qo‘zhma gaplar misolida). – Monografiya. Ilm, ziyo, zakovat. – Toshkent, 2023. 181-b.

2. Toirova G. I. So‘zlashuv uslubida tejamlilikning pragmatik xususiyatlari . Образование и инновационные исследования. – №5 , 2022. – B. 58.

3. Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика. Учебное пособие для студентов пединститутов по спец. 2101. “Русский язык и литература”. – М.: Просвещение, 1987. – С. 72

4. Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда синтактик-семантик асимметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б.148.

5. Скаличка В. Асимметричный дуализм языковых единиц. Пражский лингвистический кружок. – М.: Прогресс, 1967. – С. 119–127.

6. Соссюр Ф. де. Труды по общему языкознанию. – М.: Наука, 1977. – С.70.